

**MUSTAQILLIK YILLARIDA O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA
TASHKIL ETILGAN SIYOSIY PARTIYALAR**

Abdullayeva Nasibaxon Arabovna

*Andijon davlat pedagogika instituti Ijtimoiy
fanlar kafedrasi, tarix fanlari bo'yicha
falsafa fanlar doktori (PhD), dotsent /b.*

Tilaboldiyeva Marguba Qo'ldash qizi

Andijon davlat pedagogika instituti magistanti.

*Har qanday siyosiy partiya zamon bilan hamnafas bo'lib, uning o'tkir talablariga
javob bergan taqdirdagina siyosiy kuch sifatida yashay oladi. ¹*

Sh.Mirziyoev

Annotatsiya: Respublikamizda tashkil topgan siyosiy partiyalar va ularning maqsad hamda vazifalari haqida sôz ketadi.

Kalit so'zlar: siyosiy partiyalar, palata, spiker, fuqaro, g'oya, deputat, sessiya, tashkilot.

Аннотация: Обсуждаются политические партии, созданные в нашей республике, их цели и задачи.

Ключевые слова: политические партии, палата, спикер, гражданин, идея, депутат, сессия, организация.

Abstract: The political parties established in our republic and their goals and tasks are discussed.

Key words: political party, chamber, speaker, citizen, idea, deputy, session, organization.

KIRISH

Siyosiy partiyalar – ijtimoiy guruhlar manfaatlarini ifodalovchi, ularning eng faol vakillarini birlashtiruvchi siyosiy tashkilotlar.

Partiya – (lot.Partio- bo'lk, qism) g'oyaviy jihatdan maslakdosh, manfaatlari bir bo'lgan kishilar guruhidan iborat, muayyan ijtimoiy guruh yoki qatlamlarning manfaatlarini himoya qiluvchi siyosiy tashkilot.

Markaziy Osiyoda esa XIX asroxiri – XX asr boshlarida siyosiy partiyalar tuzish uchun qulay vaziyat vujudga kelgan. Bunga Jadidchilik harakati turtki bo'lgan. Lekin Chor hokimiyati va mahalliy hukmdorlar qarshilik qildi. Natijada 1917-yilgacha siyosiy, nazariy, tashkiliy jihatdan yetuk siyosiy partiyalar shakllanib bo'lmadi. Oktyabr to'ntarishi davridagi siyosiy tashkilotlar va rahbarlari qatag'on qilindi. "Milliy ittihad", "Yosh buxoroliklar", "Yosh xivaliklar" kabi siyosiy

tashkilotlar tuzildi. Sho'rolar davrida kommunistik partiyadan boshqa partiya tuzish ta'qiqlab qo'yildi.

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan so'ng, mamlakatimizda ijtimoiy, iqtisodiy, ma'naviy va ma'rifiy sohalarni rivojlantirish uchun siyosiy partiyalar shakllanishiga imkoniyat yaratildi.

Bu Siyosiy partiyalar o'z faoliyatini O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi (1992-yil 8 dekabr), O'zbekiston Respublikasining „Siyosiy partiyalar to'g'risida“gi qonuni (1996-yil 26 dekabr), boshqa qonun hujjatlari, shuningdek, o'z ustavi asosida amalga oshiradi. Siyosiy partiyalar tashkil etish huquqi Konstitutsiyaning 34-moddasida²(70-modda yangi tahrir) mustahkamlangan. Qonunga ko'ra siyosiy partiyalar fuqarolarning huquq va erkinliklarini amalga oshirish maqsadida, o'z xohish-irodalarini erkin bildirish, partiyaqa ixtiyoriy ravishda kirish va undan chiqish, a'zolarining teng huquqliligi, o'zini o'zi boshqarish, qonuniylik va oshkoralik asosida tuziladi va faoliyat ko'rsatadi.

Siyosiy partiyalarga quyidagi fuqarolar a'zo bo'la olmaydilar:

Siyosiy partiyalar to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasining qonuni bo'yicha, huquqni muhofaza qiluvchi organlarda xizmat qiluvchi shaxslar (sudyalar, prokurorlar va prokuratura tergovchilari); ichki ishlar organlari, milliy xavfsizlik xizmati xodimlari, harbiy xizmatchilar, xorijiy davlatlarning fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar Siyosiy partiyalarga a'zo bo'la olmaydilar. Siyosiy partiyalarga a'zolik faqat yakka tartibda qayd etiladi. Bir partiyaning a'zosi ayni vaqtda 2 partiyaqa a'zolikqa qabul qilinmaydi.

Hozirgi vaqtda O'zbekistonda 5ta siyosiy partiya mustaqil faoliyat olib bormoqda.

1.O'zbekiston xalq demokratik partiyasi – 1991-yil

1-noyabrdagi partiyaning Ta'sis qurultoyida asos solindi.

O'zbekiston Xalq demokratik partiyasi rahbari: Inoyatov Ulug'bek

O'zbekiston Xalq demokratik partiyasining asosiy maqsadlari quyidagilardan iborat bo'lib, O'zbekiston XDPning ijtimoiy adolat va ijtimoiy himoyaga muhtoj kishilar manfaatlarini himoya qilishga bel bog'lagani uning mamlakat siyosiy kuchlari so'l qanoti bo'lishligini belgilaydi.

O'zbekiston Xalq demokratik partiyasi O'zbekistonning mustaqilligini asrash va mustahkamlash, Vatanimizning gullab-yashnashini ta'minlash, mamlakatda fuqarolik va millatlararo totuvlik, ijtimoiy barqarorlik, har bir oila va butun xalq farovonligiga erishish kabi umummilliy manfaatlarini o'z mafkurasi va siyosiy faoliyatining poydevori, deb biladi.

2. O'zbekiston “Adolat” sotsial demokratik partiyasi –1995-yil 18-fevralda partiyaning birinchi Ta'sis Qurultoyida tashkil topgan.

O'zbekiston “Adolat” sotsial-demokratik partiyasi rahbari: Bahrom Abduhalimov

O'zbekiston “Adolat” sotsial-demokratik partiyasining asosiy maqsadlari

O‘zbekiston «Adolat» sotsial-demokratik partiyasining asosiy maqsadlari O‘zbekiston Respublikasi mustaqilligini mustahkamlashga; Respublikada kechayotgan islohotlarning jadallashuviga, huquqiy, demokratik davlat va adolatli fuqarolik jamiyati qurishga; jamiyat hayotining barcha jabhalarida ijtimoiy adolat g‘oyalarini qaror toptirishga; aholining kam ta‘minlangan ehtiyojmand qatlamlari uchun zarur ijtimoiy muhofazani ta‘minlashga munosib hissa qo‘shishdan iborat.

3. O‘zbekiston Milliy tiklanish demokratik partiyasi – dastlab 1995-yil iyunda tuzilgan, keyinchalik 2008-yil 20-iyun kuni O‘zbekiston "Milliy tiklanish" demokratik partiyasi va O‘zbekiston "Fidokorlar" milliy demokratik partiyasining birlashish Qurultoyi bo‘lib o‘tib, ikki partiya negizida yangi O‘zbekiston "Milliy tiklanish" demokratik partiyasi tashkil topdi.

O‘zbekiston “Milliy tiklanish” Demokratik partiyasi

rahbari: Qodirov Alisher

Partiyaning asosiy maqsadlari quyidagilardan iborat bo‘lib, O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarida milliy o‘zlikni anglashning o‘sishi, milliy g‘urur, Vatanga sadoqat va muhabbat tuyg‘usini shakllantirish hamda mustahkamlash uchun qulay sharoitlar yaratish;

o‘z safida yurtning vatanparvarlarini birlashtirish, ularning intellektual va ijodiy salohiyatini O‘zbekiston manfaatlari hamda uning xalqaro obro‘-e‘tiborini oshirish yo‘lida safarbar etishdan iborat.

4. O‘zbekiston Liberal-demokratik partiyasi – 2003-yil 15-noyabrda bo‘lib o‘tgan Ta‘sis S‘yездida tashkil topgan.

Tadbirkorlar va ishbiarmonlar harakati – O‘zbekiston Liberal-demokratik partiyasi” (O‘zLiDeP) rahbari: Xaitov Aktam Axmadovich

Tadbirkorlar va ishbiarmonlar harakati- O‘zbekiston Liberal-demokratik partiyasining asosiy maqsadlari quyidagilardan iborat bo‘lib, Siyosiy kuch sifatida birlashgan holda tadbirkor va ishbiarmonlarning yanada kengroq faoliyat yuritishlari uchun yangi imkoniyatlar ochish, ularning istiqbolini ham nazariy, ham amaliy jihatdan asoslab berish, jamiyatning ushbu tabaqasi manfaatlarini himoyalash barobarida uning ertangi kunini ta‘minlash,

Partiyaning davlat boshqaruvi, jamiyatda shakllanayotgan qarashlarga ta‘sir o‘tkazish, siyosiy va iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishdagi ishtirokini ta‘minlash.

5. O‘zbekiston Ekologik partiyasi – 2008-yil avgust

2019 yil 24 yanvarda Adliya vazirligi tomonidan O‘zbekiston Ekologik partiyasi davlat ro‘yxatidan o‘tkazildi.

O‘zbekiston ekologik partiyasi rahbari: Narzullo Oblomurodov

O‘zbekiston ekologik partiyasi partiyasining asosiy maqsadlari quyidagilardan iborat bo‘lib,

O‘zbekiston ekologik partiyasi fraksiyasi fuqarolarning hozirgi va kelgusi avlodi qulay atrof-muhit sharoitida yashash, aholi salomatligini yaxshilash, barcha tabiiy resurslarni muhofaza qilish va ulardan oqilona foydalanish huquqlarini hamda ularga so‘zsiz rioya etilishini ta‘minlashga qaratilgan yangilanish jarayonlarini yanada chuqurlashtirishda jamiyatning bor kuch va salohiyatini safarbar qilishga intilishdan iborat.

XULOSA

Xulosa o‘rnida shuni aytish kerakki, O‘zbekistonda siyosiy tizimi zamonaviy siyosiy munosabatlar shart-sharoitlari va omillariga moslashish hamda uyg‘unlashish sifatlariga ega bo‘lib bormoqda. Siyosiy partiyalarning islohatlar jarayonidagi jamiyatni yangilash va modernizatsiya qilish, fuqarolarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirishdagi roli va ahamiyatini kuchaytirish, ijro hokimiyati ustidan jamoatchilik, saylab qo‘yiladigan hamda vakolatli organlar nazoratini kuchaytirish, taraqqiy topgan demokratik davlatlar tajribasi asosida yurtimizda haqiqiy ko‘ppartiyaviylik muhitini qaror toptirishga qaratilgan hayotiy zarur huquqiy qoidalar o‘z aksini topdi. Bularning barchasi siyosiy partiyalarning keng ko‘lamda ijtimoiy-siyosiy faoliyat yuritishini ta‘minlaydigan mustahkam qonunchilik bazasi yaratilishiga va ularning jamiyatimizdagi o‘rni, nufuzi va mavqegini, vakolatlarini yanada kengaytirishga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR

1. Sh.Mirziyoev siyosiy partiyalar rahbarlari bilan uchrashuvidan 2019 yil 22-avgust.
2. 1992-yil 8-dekabrdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi
3. O‘zbekiston tarixi Narzulla Jo‘rayev, Akbar Zamonov G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi Toshkent – 2018
4. Internet manbalar
5. LEX.UZ, Wikipedia, Uza.uz.